



Bozorboyeva Mehribon

Xorzm viloyati Yangibozor tumanidagi 20-maktab o'quvchisi

TA'LIM ISLOHOTLARIGA BARCHAMIZ DAXLDORMIZ

Annototsiya: ushbu maqolada bugungi kunda olib borilayotgan ta'lism sohasidagi islohotlar, ilm-fan va ta'lism sohasini yuksaltirishda yoshlarning o'rni haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'z: ta'lism, tizim, davlat, yoshlar, islohot, ta'lism sifati.

Bugun zamonaviy hayotni ilm-marifat va ta'limga taraqqiyotisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Ayni damda, ta'lism islohotlaridagi faoliyat yanada takomillashib, xalqimizning asrlar davomida shakllangan ilm sari intilish fazilati yana bir bor namoyon bo'lmoxda. Yoshlarimiz sog'lom hamda go'zal turmush kechirish, egallagan kasbi bo'yicha doimiy ish o'rniga ega bo'lish, mas'uliyatni o'z zimmasiga olish, insoniy qadr-qimmatni kamsitishga yo'l qo'ymaslik, qisqacha aytganda, komillikka erishish uchun harakat qilyapti va bu jarayonda ta'lism olishni eng asosiy vazifa deb bilishmoqda. Davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Biz keng ko'lamli demokratik o'zgarishlar, jumladan, ta'lism islohotlari orqali O'zbekistonda yangi uyg'onish davri, ya'ni uchinchi renesans poydevorini yaratishni o'zimizga asosiy masad qilib belgiladik". Bu bilan Prezidentimizning yurt kelajagi bo'lgan biz yoshlarga bildirgan ishonchi va hurmati cheksizligidan dalolat beradi. Davlatning ertangi kuni yoshlarning qay darajada bilimli ekanligi bilan bevosita bog'liq. Shu bois ta'lism tizimini rivojlantirish masalasiga hukumat darajasida e'tibor qaratilishi har bir davlatning muhim vazifasi hisoblanadi.

O'zbekistonda so'nggi yillar davomida "Harakatlar strategiyasi" va uning mantiqiy davomi bo'lgan "Taraqqiyot strategiyasi" doirasida, rivojlangan davlatlar kabi uzlusiz ta'lism tizimini muntazam takomillashtirib borish, sifatlari ta'lism-tarbiya berish, malakali kadrlarni tayyorlash bo'yicha sezilarli islohotlar amalga oshirildi.¹

Yurtboshimiz aytganlaridek: "Hammamizga ayonki, taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham bu—ilm-fan, ta'lism va tarbiyadir. Ertangi kunimiz, Vatanimizning yorug' istiqboli, birinchi navbatda, ta'lism tizimi va farzandlarimizga berayotgan tarbiyamiz bilan chambarchas bog'liq.²

Ta'lism sohasida davlatning alohida majburiyatlari sifatida imkoniyati cheklangan bolalarining sifatli ta'lism olish imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan aniq mexanizmlar nazarda tutilgan bo'lib, ta'lism tashkilotlarida alohida ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalar uchun inklyuziv ta'lism va tarbiya ta'minlanishi haqida ijtimoiy norma kiritilmoqda.

Bu islohotlarni amalga oshirish uchun ta'lism berish sifatiga e'tibor berish va ushbu sohada ishslashning jozibadorligini doimiy ravishda oshirib borish zarur. Zero, millat va xalqning rivoji, uning intellektual salohiyatini oshirish o'qituvchilar faoliyatiga bog'liq. O'qituvchi ilm-fan sirlari, ma'naviy va madaniy merosni yoshlarga yetkazishda muhim bo'g'in hisoblanadi. Demak, o'qituvchilarga o'zlarining salohiyatini to'liq namoyon etishlari uchun shart-sharoitlarni yaratish ularni ijtimoiy, huquqiy, moddiy qo'llab-quvvatlash darkor.

Xususan, bu borada yurtboshimiz ta'kidlaganidek: "Farzandlarimiz maktabdan qanchalik bilimli bo'lib chiqsa, yuqori texnologiyalarga asoslangan iqtisodiyot tarmoqlari shuncha tez rivojlanadi, ko'plab

¹ Strategy.uzhttps://strategy.uz>...talim sohasidagi islohotlarni davom ettirish-ustuvor vazifa...

² Xalq so'zi <https://xs.uz>post>talim> tizimi...



ijtimoiy muammolarni yechish imkoniyatini tug‘iladi. Shunday ekan, Yangi O‘zbekiston ostonasi maktabdan boshlanadi desam, o‘ylaymanki, butun xalqimiz bu fikrni qo‘llab-quvvatlaydi.³

“Kimda-kim maktab bu faqat, Maktab va maktabgacha ta’lim vazirligining ishi deb o‘ylasa, mutlaqo yanglishadi. Maktab ta’limi sohasidagi islohotlar vazirlik va idoralar, tarmoq rahbarlari, barcha darajadagi hokimlar, ilmiy tashkilotlar, ziyyolilar, keng jamoatchilikning vazifasi bo‘lishi shart va zarur. Shundagina kutilgan natijaga erishish mumkin”, -deb ta’kidlagan edi Prezidentimiz.⁴

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, ta’lim sohasidagi islohotlar ham bugungi kunda o‘zining dolzarbliji hamda amaliy ahamiyati bilan boshqa sohalardagi islohotlardan aslo qolishmaydi. Chunki ushbu sohadagi islohotlarni yanada keng ko‘lamda davom ettirish davr talabidir. Ulkan maqsad va marralarga yo‘l ochayotgan “Taraqqiyot strategiyasi”da belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash, Yangi O‘zbekistonni rivojlangan davlatlar qatoriga olib chiqish, dastlabki, navbatda maktabda zamonaviy bilimlarni egallagan, raqobatdosh yoshlarga bog‘liq.

³ Yangi o‘zbekiston [https://yuz.uz>news>talim-tizimi...](https://yuz.uz/news/talim-tizimi...)

⁴ O‘zLidep [https://uzlidep.uz>news>ofparty](https://uzlidep.uz/news/ofparty)